


ISSN 2010-5460

2022

№ 1

MAKTAB VA HAYOT

Ilmiy-metodik jurnal



BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Ayubxon RADJIYEV
Baxtiyor SAIDOV
Boris BLYAXER
Risboy JO'RAYEV
Rustem REIMOV
Shaxnoza XALILOVA
Sharibboy ERGASHEV
Feruza QODIROVA
G'ayrat SHOUMAROV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va

psixologik-pedagogik

respublika tashxis markazi

«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT» dan olindi,
deb ko'rsatilish shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,

Olmazor t., Ziylo ko'chasi, 6A uy.

Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

A.I.RASULOV.

O'qituvchining psixologik qiyofasini o'rganish usuli2

N.H.XOLYIGITOVA.

Umumta'lim maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish - ijtimoiy psixologik muammo sifatida.....6

N.M.MULLABAYEVA.

Bulling ishtirokchilariga amaliy yordam ko'rsatishning o'ziga xos jihatlari9

O'.B.SHAMSIYEV.

Ota-onalar va bolalar o'zini-o'zi anglashining mutanosibligi muammosi11

L.M.MAXKAMOVA.

Maktabda o'zlashtirmaslik muammosiga psixologik va neyropsixologik yondashuvlar14

R.M.MUSURMONOV.

Tarbiya muammosi hyech qachon eskirmaydi yoxud o'tmish allomalari tarbiya haqida16

N.N.SHOMUROTOVA.

Inklyuziv ta'limning ijtimoiy-psixologik ahamiyati19

SH.D.SHOKIROVA.

Lab va tanglayning plastik jarrohligidan so'ng bolalarni logopedik tekshirish mexanizmi.....21

SH.ABUTOVA.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan muloqot qilish qoidalari22

SH.E.TOXTIYAROVA, YU.R.MAXAMADIEVA.

Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqi leksik-semantik tomonining o'ziga xos xususiyatlari24

N.M.KAYUMOVA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini multimediya vositalari orqali tashkil etishning ahamiyati26

D.R.BABAYEVA, X.SH.OCHILOVA.

Kichik yoshdagi bolalarni kitobga mehr uyg'otish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish.....28

M.R.AKRAMOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik ong shakllanishining psixologik mexanizmlari.....30

F.S.TO'RABEKOV.

Texnologik ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda axborot talimi muhitidan foydalanishning ijtimoiy jihatdan zarurligi.....32

A.R.MUXAMEDJANOVA.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....33

A.S.NAZAROV.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarining qaror qabul qilish faoliyatida shaxs kreativligining o'rni35

M.K.SHIRINOV.

5E ta'lim modelidan boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida foydalanish37

SH.E.MAMARAJABOV.

Ta'lim jarayonini differensiallashtirishning imkoniyatlari.....38

A.N.RASULOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klasteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fanini o'qitishning zarurligi.....40

X.SH.YUNUSOVA.

Ta'lim sohasidagi klasterli yondashuv-ta'lim richagi sifatida.....42

N.ABDANBEKOVA.

Ingliz tilini o'qitishning innovatsion metodlari44

S.J.ACHILOVA, M.R.RAXMATULLAYEVA.

Dislaliya nutq kamchiligini o'rganishda ilmiy-nazariy asoslarning ahamiyati45

S.X.MARDOV.

Ta'lim turlarida arxitektura qurilish chizmachiligi o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari47



and read them. Make up word-combinations and sentences with them.

O'quvchilar o'qituvchining savollariga javob beradilar.

Mavzuni daftarga yozib oladilar.

O'qituvchini tinglaydilar. Savollar yozilgan kartochkalarni oladilar va unga og'zaki javob beradilar. Gapni o'qiydilar va tarjima qiladilar, yil oylarini ingliz tilida takrorlaydilar. Yangi so'zlar bilan ishlaydilar: o'qituvchining ketidan takrorlaydilar, o'zlari so'zlarni o'qiydilar, so'z birikmalari va gap tuzadilar.

Yozma topshiriq

Actualization of the knowledge

Guruh bilan ishlash

Birinchi guruh yil fasllari nomlari, ikkinchi guruh oy nomlarini oladi.

Berilgan so'zlardan yil fasllari va oylarga tegishlisini toping.

Darslik bilan ishlash.

Exercise 5. Read the sentences, translate them and point out the adjectives which describe weather:

It is cloudy in September.

It is wet in March.

Exercise 6 on the board. Read the sentences, choose the adjectives from my table and put it in the blank:

Answer the question:

What is your favorite season and why?

Individual work:

Write an essay on the topic: "My Favorite Season"

Read the essays.

Look at the pictures and name the holidays and the seasons the take place in.

Topshiriqni yozma ravishda bajaradilar.

Gaplarni o'qiydilar, ularni tarjima qiladilar, ob-havoni aks ettiruvchi sifatlarini aytib beradilar.

Doskada ishlash. Gaplarga kerakli sifatlarini qo'yib to'ldiradilar.

Sevgan fasli haqida savollarga og'zaki javob beradilar.

Mustaqil ish. "Men sevgan fasl" mavzusida insho yozish.

Inshoni o'qib beradilar.

Rasm bilan ishlash ko'nikmasi: Rasmda aks ettirilgan yil fasllariga mos bayramlarni sanab beradilar.

Homework

What season is it now? What holidays come soon?

You have to write letters to Father Frost. Some of you have to write sentences with the new words.

O'qituvchining savollariga javob beradilar.

Uyga vazifani yozib oladilar.

Evaluation

What did you learn today?

Did you like our lesson?

Comment on the marks

Thank you!

Good bye!

Bunday innovatsion darsga tayyorgarlik ko'rayotganda matn tanlashga alohida e'tibor berish kerak. Matn yuqori darajada badiiy bo'lishi kerak, shu bilan birga o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham, o'rganilayotgan materialning hajmini ham hisobga olish kerak. Keyinchalik qiyosiy va qarama-qarshi tahlil o'tkazish uchun umumiy mavzu bilan birlashtirilgan turli mualliflarning matnlaridan, turli uslublar va nutq turlarining matnlaridan tahlil qilish uchun foydalanish tavsiya etiladi.

Bunday darsda o'qituvchi an'anaviy darsning nostandart, ijodiy elementlariga murojaat qilishi, leksik diktant yoki krossvord va topishmoqlar tuzishi mumkin. Asosiysi, darsda bolalarning zerikishiga yo'l qo'ymaslik muhim. O'quvchilar o'zlari ishlashni, o'qishni xohlashlari dars muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Мировые образовательные технологии: основные тенденции, проблемы адаптации и эффективность. Материалы республиканской научно-методической конференции. 25-26 апреля. Алматы.

2. Мынбаева А.К., Садвакасова З.М. Инновационные методы обучения или как интересно преподавать: Учебное пособие. 2009.

3. Johnson D. W., Johnson R. T., Youtube E. I. Circles of Learning: Cooperation in the Classroom. Minnesota.

4. <https://englishfull.ru/znat/urok-v-5-klasse.html>

DISLALIYA NUTQ KAMCHILIGINI O'RGANISHDA ILMIY-NAZARIY ASOSLARNING AHAMIYATI

S.J.Achilova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Defektologiya" kafedrasida dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.R.Raxmatullayeva, 1 kurs magistratura talabasi

В данной статье описывается содержание научных исследований, проведенных учеными при изучении дислалии и важность применения их в работе с детьми с речевым дефектом.

Ключевые слова и понятия: речь, дислалия, произношение звука, словарный запас, фонетика, общение.

This article describes the content of scientific research conducted by scientists in the study of dyslalia and the importance of their application in working with children with a speech defect.

Key words and concepts: speech, dyslalia, sound pronunciation, vocabulary, phonetics, communication.

Har bir inson ma'lum bir fikrni yetkazishda avvalambor ichki nutqni tahlil etgan holda tashqi nutqida bayon etadi. Jamiyatda inson o'z o'rini topishda va ma'lum bir kasb egallashda uning nutqi ravon bo'lib rivojlanishi zarurdir.

Ma'lumki, dislaliya nutq kamchiligi o'rganishda olib borilgan

ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ushbu nutq kamchiligi bartaraf etishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Bolalarda tovushni to'g'ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shakllanadi. Bolalarda to'g'ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tomonlama rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Ko'p tarmoqli



maxsus maktabgacha muassasalarda lug'atni boyitishga, to'g'ri talaffuz qoidalarini egallashga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e'tibor beriladi.

Nutqning tovush sistemasi hozirda shakl birligi (fonetika) va mazmuni (fonologiya), "ifodalash rejasi" va "mazmun rejasi" birligi, nutq va til vositalari birligi sifatida ko'rib chiqildi.

Mualliflarning ta'kidlashicha, tovush haqida ikki funni bilish darkor – biri nutqda, ikkinchisi tilda o'z ifodasini topishi kerak. Tekshirishlardan kelib chiqib, tovush haqida ikkita fan tafovut qilinadi – muloqot maqsadida qo'llaniladigan tovush signallari va jismoniy ko'rinish bo'lgan konkret tovushlar.

Tovush ta'sirotlariga bo'lgan reaksiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatiladi. Reaksiya tana qimirlashi, imlash, nutqiy nafas va pulsning o'zgarishi ko'rinishida bo'ladi. Bolaning ikki haftaligida eshitish dominantining yuzaga kelganligi haqida xabar beruvchi, tovush ta'sirotlari ostida ba'zi bir tana harakatlarining va yig'ining to'xtalganligi kuzatiladi. To'rtinchi haftada alla ta'sirida bolada tinchlanish holati kuzatiladi. Bularning hammasi shartsiz reflekslardir.

yetti oylikdan boshlab, bola onaning ba'zi bir tovushlariga ta'sir ko'rsatadi va bu tovushlar uning gugulash repertuaridan joy oladi. Bolalar eng oson intonatsiyani yaxshi o'zlashtiradilar, u bolaning ona bilan emotsional muloqoti jarayonida paydo bo'lib, asosan nutqqacha eng muhim vosita hisoblanadi.

Nutqni idrok qilishni tekshirish jarayonida olimlar (V.P.Ananev, V.I.Beltikov, A.N.Gvozdev) bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan holda juda erta yuzaga kelar ekan, degan xulosaga keldilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, bolaning eshitish analizatori funksiyasi erta rivojlanganligi sababli u nutq rivojlanishining boshidayoq akustik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan tovushlarni ajrata biladi, rivojlangan fonematik eshituv bolaga faqat to'liq nutqni egallashiga yordam beribgina qolmay ona tilida bernalol muloqot qila olish malakalarini ham shakllantiradi.

Normada rivojlanayotgan 6 va 7 yoshli bolaning umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi maktabda ta'lim olishga ma'lum jihatdan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishini ko'rsatadi. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda maktabda ta'lim olishga, savod o'rganishga zarur bo'lgan nutqiy ko'nikma va malakalar yetarli shakllanmagan bo'ladi. Bu esa maktabda ta'lim olish, savod o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklar tug'diradi.

Nutq nuqsonlari, ularni namoyon bo'lishini o'rganish tarixdan juda dolzarb bo'lib, bu sohada juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan. Nutqning tovushlar tomonini o'zlashtirish uchun tovushlarni idrok etish va talaffuz qilishning rivojlanishi muhimdir. Nutqda tovushlarni, so'zlarning fonetik tarkibini to'g'ri idrok etish darxda vujudga kelmaydi, balki bu doimiy rivojlanish natijasi hisoblanadi. Nutqning ilk rivojlanish davrida bola so'zlarni umumiy yaxlit idrok etadi. Keyingi bosqichlarda esa, rivojlanish natijasida so'zlarning tarkibidagi tovushlarni ajrata boshlaydi. Bir vaqtning o'zida faol lug'at rivojlanadi va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganadi. Bolada so'zlar va alohida tovushlarni akustik va artikulyar jihatidan farqlash shakllanadi.

Nutqiy kamchiliklar ustida juda ko'p olimlar ish olib borganlar. Talaffuzdagi kamchiliklar muammosi nutqiy patologiyalar tarixini o'rganishda eng dolzarb bo'lgan ko'pgina ishlarda yoritilgan. Kichik maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish metodlari tomonidan ishlab chiqilgan. Og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Mualliflar og'zaki nutqdagi kamchiliklarni kelib chiqish sabablarini turlicha talqin qiladilar va bartaraf etish uchun turli metodik ko'rsatmalar beradilar.

M.Aleksandrovskaya ma'lumotiga ko'ra, tekshirilgan 1200 ta bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar kuzatilgan, shularning 404 tasi 5 yoshli, 324 tasi 6 yoshli, 244 tasi 7 yoshli, 144 tasi esa 8-9 yoshli bolalarni tashkil etgan. Muallifning fikricha, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning ko'p foizi maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilar ekan hamda bu kamchilik maxsus pedagogik aralashuvsiz o'z-o'zidan yo'qolib ketmaydi, balki bu kamchiliklar maktabgacha yoshda bartaraf etilmasa kichik maktab yoshda ham namoyon bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Bolalarda, sirg'aluvchi, shovqinli, sonor r, l tovushlaridagi kamchiliklar ko'proq uchrar ekan. Qolgan tovushlardagi kamchiliklar yuqorida ko'rsatilgan tovushlarga nisbatan kam uchrar ekan. Shuningdek, bolalarda uchraydigan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar sababi motor sferadagi va akustik idrokda kamchiliklar natijasidir.

Bu borada O'zbekistonda L.R.Mo'minova, M.Yu.Ayupova va boshqalarning olib borgan ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar qadimgi davrlarga taqalib, birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq. O'rta asrga kelib, dislaliya haqida yangi fikrlar paydo bo'lmay, qadimgi davr ilmiy g'oyalari takrorlanadi. Tarixning keyingi davrlarida (ya'ni 16-18 asrlarda) italyan professori Merkurialis, nemis fiziologi Alberxt Fon Gallerning ishlari paydo bo'ldi. Ular ham tili chuchuklikni (dislasiyani) perefirik nutq apparati tuzilishidagi kamchiliklar natijasi deb qaraydilar. Merkurialis bu kamchilikni davolash usulining eng mosi deb xirurgik terapiya deb hisoblaydi. Galler esa talaffuzdagi kamchiliklarni mashqlar orqali davolash fikrini ilgari suradi. Keyinchalik bu fikr fransuz olim J.Talma ishlarida ham o'z aksini topadi.

Shunday qilib, 19 asrgacha tili chuchuklikning mohiyatini artikulyasion organlar ishidagi mexanik buzilishlarga bog'lab o'rganganlar. Chunonchi, bu davrlarda tili chuchuklik «duduklanish» deb nomlanuvchi nutq buzilishining umumiy guruhidan ajratilmagan edi. Nutqdagi talaffuz kamchiliklariga birinchi tasnif 19 asrning boshlarida berildi. Funksional dislaliyaga noto'g'ri nutqiy tarbiya va nutq apparatida mashqlarni, ya'ni harakatning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan nutq kamchiliklarini kiritadi. A.Kussmaul tomonidan birinchi marta ayrim tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni ifodalovchi terminlar kiritildi: rotatsizm-pararotatsizm, lambdatsizm-paralambdatsizm, sigmatizm-parasigmatizm va hokazo. Shunday qilib, A.Kussmaulning xizmatlari shundaki, u dislaliyani dizartriya dan ajratdi va dislaliyani funksional va mexanik shakllarini ko'rsatib berdi.

Adabiyotlar

1. Григоренко Н.Ю., Синяева М.Л. Логопедический и медицинский аспекты органической дислалии и способы ее коррекции // Дефектология 2000.
2. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya". O'quv qo'llanma. Chirchiq., 2021.
3. Achilova S.J. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik ish turlari. "Maktab va hayot" ilmiy metodik jurnali. Toshkent 2021, 1 son.
4. Ачилова С.Ж. Логопедическая работа в специализированных учреждениях с диагнозом дизартрия. "Халқ таълими" илмий-методик журналы. Тошкент 2021, 1 сон январь-февраль.